

"TASDIQLAYMAN"

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi



F. Rashidova

2025-yil 14-oktyabr

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi yig'ilishining 4-son bayoni

Toshkent shahri

2025-yil 14-oktyabr

Raislik qiluvchi: – **F. Rashidova**, Jamoatchilik kengashi raisi

Qatnashdilar: – Jamoatchilik kengashi a'zolari, Jamoatchilik
kengashi kotibi

KUN TARTIBI:

**Nodavlat notijorat tashkilotlar uchun ijtimoiy buyurtma berish
bo'yicha ijtimoiy loyiha tanloviga kelib tushgan hujjatlarni
ko'rib chiqish va baholash to'g'risida**

(Rashidova, Jamoatchilik kengashi a'zolari, Rashidova)

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining navbatdagi yig'ilishi kengash raisi Feruza Rashidova boshchiligida bo'lib o'tdi. Tadbir oflayn va onlayn shakllarda tashkil etildi.

Yig'ilish avvalida Kengash kotibi Nazokat Abduqunduzova so'zga chiqib, majlisda 13 nafar a'zo ishtirok etayotganini, bu esa yig'ilishni davom ettirish uchun kvorum mavjudligini anglatishini ma'lum qildi. Shuningdek, u kun tartibidagi nodavlat notijorat tashkilotlar uchun ijtimoiy buyurtma berish bo'yicha ijtimoiy loyiha tanloviga kelib tushgan hujjatlarni ko'rib chiqish va baholash masalasi yuzasidan yig'ilish ishtirokchilarini ma'lumot bilan tanishtirdi.

Tanlov Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 10-sentyabrdagi 347-son buyrug'iga muvofiq tashkil etilib, bu haqda vazirlikning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqdagi sahifalarida e'lon

berilgani va hujjatlar qabul qilish jarayoni 2025-yil 15-sentyabrdan 1-oktyabrgacha davom etgani to'g'risida ma'lumot berildi.

Kun tartibidagi masala bo'yicha Jamoatchilik kengashi raisi F. Rashidova so'zga chiqib, ariza topshirish davrida **18 ta hujjat** kelib tushganini ma'lum qildi. Ular 20 ta baholash mezonini asosida ko'rib chiqilishi belgilangan.

Yig'ilish davomida kengash a'zolari hujjatlar tahlili chog'ida **4 ta ariza nodavlat notijorat tashkilotidan emas, balki nodavlat ta'lim muassasasi** ("Mahorat va Menejment" – 2 ta loyiha) va **mas'uliyati cheklangan jamiyat** ("OUTLOOK" – 2 ta loyiha)dan kelib tushgani ko'rsatib o'tildi, shuningdek, **O'zbekiston hakamlik sudlari assotsiatsiyasi Farg'ona viloyat vakolatxonasi** tomonidan yuborilgan "Zamonaviy bilim va innovatsiyaga yo'l" nomli loyiha maktab ta'limiga tegishli bo'lgani sababli vazirlikning ustuvor yo'nalishlariga nomuvofiq deb topildi.


Shundan so'ng, kengash a'zolari 13 ta loyiha arizasini muhokama qildilar. Muhokamalar yakunida 20 ta baholash mezonini asosida 100 ballik tizimga binoan xolislik va shaffoflik asosida baholadilar.

Kun tartibidagi masala yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar asosida yig'ilish **qaror qiladi:**

1. Jamoatchilik kengashining Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 10-sentyabrdagi 347-son buyrug'iga muvofiq tashkil etilgani ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Jamoatchilik kengashi a'zolari tomonidan 13 ta loyiha 20 ta mezon asosida baholash natijalariga ko'ra eng yuqori ball olgan **"Istiqbol" tadqiqot markazining** "Oliy ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'quv-uslubiy ta'minotini rivojlantirish" (1103 ball) loyihasi 412 000 000 (to'rt yuz o'n ikki million) so'm miqdorida moliyalashtirish uchun vazirlikka taqdim etilsin.

Kengash kotibi



N. Abduqunduzova

Nodavlat notijorat tashkilotlar uchun ijtimoiy buyurtma berish bo'yicha loyihalar tanloviga kelib tushgan hujjatlarni
BAHOLASH VARAQASI

T/r	Jamoatchilik kengashi a'zolari F.I.Sh.	Ta'lim tizimini rivojlantirish va sifatini oshirish			Ilmiy tadqiqot ishlarini qo'llab- quvvatlash				Ta'lim jarayonini raqamlashtirish			Inklyuziv ta'limni rivojlantirish								Ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish
		Hakamlik sudlari (Farg'ona)	Mahorat_ management_1	Tabiat va inson kapitalini rivojlantirish	Ko'zi oqizlar jamiyati (Vobkent)	Ajdodlar izidan	Noila	OUTLOOK_1	Taskin markazi	UZTEA	Nodirabegim_ markazi	Istiqbol	Ko'zi oqizlar jamiyati (Jomboy)	Mahorat_ management_2	O'zb. nagironlar assost - Farg'ona	Ko'zi oqizlar jamiyati (Buxoro)	OUTLOOK_2	Xalqaro gospital pedagoglar assotatsiyasi		
1.	Rashidova Feruza	71	97	77	54	87	98	MChJ	87	96	97	91	0	98	49	87	MChJ	49	98	
2.	Saifnazarov Ismoil	0	NTM	87	84	91	80	MChJ	80	96	83	99	82	NTM	79	82	MChJ	78	84	
3.	Abduhalilov Abdullo	0	NTM	73	67	89	50	MChJ	49	83	83	96	65	NTM	60	69	MChJ	78	81	
4.	Toshpo'latova Nozima	0	NTM	88	75	100	83	MChJ	85	88	86	100	79	NTM	77	82	MChJ	86	93	
5.	Mahmudova Hulkar	0	NTM	75	74	80	76	MChJ	79	75	77	79	76	NTM	71	76	MChJ	79	76	
6.	Isayev Qobiljon	0	NTM	69	65	65	69	MChJ	70	68	83	93	79	67	58	68	MChJ	67	76	
7.	Axatova Inohat	0	NTM	55	80	43	44	MChJ	38	38	68	79	50	NTM	36	81	MChJ	41	38	
8.	Kamilova Xalima	0	NTM	74	82	85	73	MChJ	66	74	75	100	73	NTM	73	77	MChJ	81	78	
9.	To'rayev Abboxon	0	NTM	64	57	55	44	MChJ	54	67	82	88	66	NTM	60	65	MChJ	67	64	
10.	Sultonova Mohira	0	NTM	59	53	55	51	MChJ	50	57	74	75	61	NTM	59	59	MChJ	57	60	
11.	Abdurazzoqov O'roz	0	NTM	55	54	59	51	MChJ	57	52	70	70	73	NTM	61	58	MChJ	68	62	
12.	Qobiljon Axmedov	0	NTM	61	60	53	51	MChJ	49	46	52	51	56	NTM	36	60	MChJ	58	51	
13.	Allayev Qahramon	0	NTM	73	63	74	55	MChJ	50	83	76	82	66	NTM	60	69	MChJ	78	78	
JAMI:		71	97	910	868	936	825		814	923	1006	1103	826	165	779	933		887	939	

Jamoatchilik kengashi raisi

F.Rashidova

Sana: 15.10.2025

imzo

Kotib

N.Abdugunduzova

Sana: 15.10.2025

imzo